MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI

TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI

"UZLUKSIZ TA'LIM TIZIMIDA, HUDUDLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA KASBIY PEDAGOGIK MAHORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH: MUAMMOLAR, YECHIMLAR"

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

TO'PLAMI



Termiz - 2025

UDK: 398.1(756.1)(092)

KBK: 82(6K)

K: 90

Ushbu to‘plamda kasbiy pedagogik mahoratni rivojlantirishning nazariy-metodologik va amaliy asoslari, hududlarning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishida uzluksiz ta`lim va kadrlar tayyorlash muammolari, uzluksiz ta`lim tizimida zamonaviy pedagogik texnologiyalar va raqamli transformatsiya, uzluksiz ta`lim tizimini isloh qilishda milliy va xalqaro tajribalar hamda bo‘lajak mutaxassislarni tayyorlash tizimini modernizatsiyalash muammolariga doir maqola va tezislar o‘rin olgan.

Taqrizchi: Kuldasheva SH.A – Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar bo‘yicha prorektori, kimyo fanlari doktri., professor.

Mirzayev M.J – Termiz davlat universiteti Ijtimoiy ish kafedrasi mudiri, p.f.b.f.d (PhD), dotsent.

Termiz davlat pedagogika instituti ilmiy-metodik kengashining 2025-yil 30-sentabr kuni o‘tkazilgan 2-sonli yig‘ilishining qarori bilan nashrga tavsiya etilgan. To‘plamdan o‘rin olgan maqolalarning saviyasi, sifati va ilmiy dalillarning haqqoniyligi hamda mazmuni uchun mualliflar mas’uldir.

“Uzluksiz ta`lim tizimida, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida kasbiy pedagogik mahorat mexanizmlarini takomillashtirish; muammolar, yechimlar” *mavzusidagi*
Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi

Mas’ul muharrir: Ayniddinov I

Muharrir:

Murodulla Ismailov Kaxramonovich – Termiz davlat pedagogika instituti Pedagogika kafedrasi mudiri

Texnik muharrir: …

Dizayner:Ochilov Yakub

ISBN: 978-9910-8622-1-2

©Ismailov M.K Nazarova Z.A Ochilov Y.S

© «KITOB NASR NASHRIUOTI» 2025

ADABIYOTLAR:

1. Avazboyev A.I., Ismadiyarov Yu.U. Kasbiy pedagogika. – Samarqand: SamDU e-library, 2020. PDF: https://e-library.sammu.uz/uploads/books/O%27zbek%20tilidagi%20adabiyotlar/%D0%9F%D0%B5%D0%B4%D0%B0%D0%B3%D0%BE%D0%B3%D0%B8%D0%BA%D0%B0/Kasbiy%20pedagogika-%20A-%20I-%20Avazboev.pdf
2. Rabbimova M.M. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyachilarning rivojlanayotgan texnologiyalarni kasbiy faoliyatda qo‘llay olish kompetensiyasini shakllantirish. – CyberLeninka, 2022. PDF: https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-ta-lim-tashkilotlarida-tarbiyachilarning-rivojlanayotgan-texnologiyalarni-kasbiy-faoliyatda-qo-llay-olish/viewer
3. Shodmonqulov M.T. Raqamlashtirish jarayonida “Ta’limda axborot texnologiyalari” fanini zamonaviy elektron axborot-ta’lim resurs asosida o‘qitish vositasi sifatida qo‘llash. – Jizzax: JDPU, 2023. Matn: https://jdpu.uz/raqamlashtirish-jarayonida-talimda-axborot-texnologiyalari-fanini-zamonaviy-elektron-axborot-talim-resurs-asosida-oqitish-vositasi-sifatida-qollas/
4. Raxmatov I.I., Raxmatova Sh.I. Raqamli ta’lim muhitida pedagoglarni samarali ishlashi uchun zarur bo‘lgan kompetensiyalar. – Buxoro: OpenScience.uz, 2023. PDF: https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/download/6364/5790/12210
5. Yo‘ldashev U., Abduraximov D. Ta’limda axborot texnologiyalari fanini zamonaviy elektron resurslar asosida o‘qitish. – Jizzax: JDPU, 2022. Matn: https://jdpu.uz/raqamlashtirish-jarayonida-talimda-axborot-texnologiyalari-fanini-zamonaviy-elektron-axborot-talim-resurs-asosida-oqitish-vositasi-sifatida-qollas/

(havola orqali bog‘langan tadqiqotlar)

FILOLOGIYA: INGLIZ TILI TA'LIM YO'NALISHI TALABALARIDA KASBIY FANLAR INTEGRATSIYASI ASOSIDA AXBOROT KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH USULLARI

Yakubov Baxtiyor Baxriddin o‘g‘li
Termiz davlat universiteti
Kompyuter va dasturiy injiniring kafedrasi o‘qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirishda kasbiy fanlar integratsiyasining o‘rni va pedagogik imkoniyatlari tahlil qilingan. Unda AKT vositalari yordamida fanlararo aloqadorlikni kuchaytirish, ta’lim jarayonini interaktiv va amaliy yo‘nalishga yo‘naltirish masalalari yoritilgan. Shuningdek, virtual laboratoriyalar, elektron platformalar va dasturiy vositalar orqali kasbiy bilimlarni uyg‘unlashtirish talabalarning raqamli savodxonligi va kreativ fikrlashini rivojlantirishda muhim omil sifatida ko‘rsatib o‘tilgan.

Tayanch so‘zlar: kasbiy fanlar integratsiyasi, axborot kompetentliligi, AKT, raqamli ta’lim, innovatsion pedagogika.

Annotation: The article analyzes the role and pedagogical potential of integrating professional subjects in developing students’ information competence. It highlights the use of information and communication technologies (ICT) to

strengthen interdisciplinary connections and make the learning process more interactive and practice-oriented. The study emphasizes that virtual laboratories, electronic platforms, and digital tools contribute to enhancing students' digital literacy and creative thinking.

Keywords: integration of professional subjects, information competence, ICT, digital education, innovative pedagogy.

Аннотация: В статье рассмотрены роль и педагогические возможности интеграции профессиональных дисциплин в развитии информационной компетентности студентов. Подчёркивается значение использования ИКТ для усиления междисциплинарных связей, интерактивности и практической направленности учебного процесса. Отмечается, что виртуальные лаборатории, электронные платформы и программные средства способствуют развитию цифровой грамотности и творческого мышления студентов.

Ключевые слова: интеграция профессиональных дисциплин, информационная компетентность, ИКТ, цифровое образование, инновационная педагогика.

Kasbiy fanlar integratsiyasi ta'lim jarayonida turli bilim sohalarini yagona tizim asosida uyg'unlashtirishga, talabalarni kompleks fikrlash va kasbiy jihatdan tayyorlashga xizmat qiladi. Integratsiya talabalarga nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog'lash imkonini yaratadi, bu esa ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi hamda bilimlarning parchalanib ketmasligini ta'minlaydi.

Kasbiy fanlar integratsiyasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o'rni alohida ahamiyatga ega. AKT yordamida fanlar o'rtasidagi uzviy bog'lanish ta'minlanadi, ta'lim jarayoni interaktiv, ochiq va shaxsga yo'naltirilgan shaklga ega bo'ladi. Virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, elektron ta'lim platformalari, onlayn kutubxonalar va dasturiy vositalar kasbiy fanlar integratsiyasini amaliyot bilan uyg'unlashtiruvchi eng muhim manbalardan hisoblanadi.

Tadqiqotchi olimlar ham bu yo'nalishda turlicha yondashuv bildirganlar. Masalan, E.S. Polat zamonaviy ta'limda "axborot-ta'lim muhiti"ni yaratish zarurligini qayd etib, bu jarayon talabalarning mustaqil bilim olish imkoniyatlarini kengaytirishi va ularning axborot kompetentligini rivojlantirishga xizmat qilishini asoslab bergan.[1] M. Castells "Axborot jamiyati nazariyasi"da bugungi davrda har qanday kasbiy faoliyat AKTdan ajralib qolishi mumkin emasligini, bilim va iqtisodiy rivojlanishning poydevori axborot oqimini to'g'ri boshqarishga tayanishini ta'kidlaydi.[2] M. Prensky esa "raqamli avlod" nazariyasida bugungi talabalarni "digital native" sifatida izohlab, ularning ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish pedagogikaning eng muhim vazifalaridan biri ekanini ta'kidlaydi.[3]

N. Mirzayeva va F. Umarova texnik oliy ta'limda virtual laboratoriyalar va interaktiv vositalardan foydalanish talabalarning amaliy ko'nikmalarini sezilarli darajada oshirishini ko'rsatganlar.[4] Y.Risyukova elektron ta'lim resurslari nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki talabalarning kasbiy fanlar bo'yicha integratsiyalashgan bilimlarini shakllantirishda ham muhim omil ekanini ta'kidlaydi.[5]

S.Seytmuratov esa o'z ilmiy ishlarida pedagogik jarayonda AKTni qo'llashning keng imkoniyatlarini ochib bergan. Unga ko'ra, axborot-kommunikatsiya

texnologiyalarini kasbiy fanlar bilan integratsiyalash: dars jarayonida interaktivlik va ochiqlikni ta’minlaydi; o‘qituvchining metodik imkoniyatlarini kengaytiradi; talabalarda axborot izlash, qayta ishlash va tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantiradi; o‘quv jarayonini zamonaviy dasturiy ta’minot vositalari bilan boyitadi; kasbiy fanlarni amaliy faoliyat bilan bevosita bog‘laydi.[6]

Kasbiy fanlar integratsiyasida AKTdan samarali foydalanish talabalarning axborot kompetentliligini shakllantirish va rivojlantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Bu jarayon natijasida talabalar nafaqat mutaxassislik bo‘yicha bilimga, balki global axborot makonida mustaqil faoliyat yuritish, tanqidiy va kreativ fikrlash qobiliyatlariga ega bo‘lgan raqamli mutaxassis sifatida shakllanadilar.

Kasbiy fanlar integratsiyasi bugungi ta’lim tizimida talabalarni raqobatbardosh mutaxassis sifatida shakllantirishning muhim pedagogik tamoyillaridan biridir. Integratsiya deganda turli fanlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni ta’minlash, ularni yagona ta’limiy jarayonga uyg‘unlashtirish va bilimlarni yaxlit ko‘rinishda o‘zlashtirish jarayoni tushuniladi.[7] Bu jarayon talabalarga nafaqat tor soha bo‘yicha bilim olish, balki o‘z kasbiy faoliyatini boshqa fanlar bilan bog‘liq holda tushunish imkonini beradi.

Integratsiya *(lot. integratio – birlashtirish, yaxlitlash)* - ta’lim jarayonida turli fanlarni o‘zaro bog‘lash, ularning bilim mazmunini uyg‘unlashtirish va talabada yaxlit tasavvur shakllantirish jarayonidir.[8]

UNESCO tomonidan ta’limning XXI asr kompetensiyalarini belgilovchi xalqaro hisobotlarda “multidisiplinar va transdisiplinar ta’lim” g‘oyalari ilgari surilgan. Unga ko‘ra, bilimlarni alohida fanlar kesimida emas, balki turli fanlarni uyg‘unlashtirgan holda o‘rganish orqali shaxsning keng qamrovli kompetentligini shakllantirish mumkin. Ayniqsa, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining tez sur’atlarda rivojlanishi fanlarni integratsiyalash uchun keng imkoniyatlar yaratmoqda.

Davlat ta’lim standartlari va o‘quv dasturlarida ham integratsion yondashuvga alohida e’tibor qaratilib, kasbiy fanlar bilan birgalikda informatika va axborot texnologiyalari fanlari o‘quv jarayonining ajralmas qismi sifatida kiritilmoqda. Bu esa talabalarni kelajakda o‘z sohasida zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanishga tayyorlaydi.

O‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish bo‘yicha juda ko‘plab pedagog tadqiqotchilar faoliyat olib borgan. Kompyuterni ta’lim jarayoniga qo‘llash bo‘yicha dastlabki tadqiqotlarni olib borgan xorijiy olimlardan biri E.I.Mashbits hisoblanadi. Uning tadqiqotlarida “Ta’limni kompyuterlashtirishni to‘xtatib bo‘lmaydi, ta’limda kompyuterni qo‘llash bu orqaga qaytmaydigan jarayondir.[10] Bu o‘z-o‘zidan amalga oshmaydi, uning faoliyati ta’lim tizimi bilan bog‘liq bo‘lgan olimlar, o‘qituvchilar, zamonaviy hisoblash texnikasi va dasturiy ta’minotni yaratuvchi kishilarga bog‘liqdir”, – degan fikrlar mavjud.

O‘quv jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, ta’lim jarayonini axborotlashtirish, elektron darsliklar, o‘quv-metodik majmualarni yaratish bo‘yicha respublikamiz olimlari ham juda ko‘plab tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, U.Sh.Begimqulov oliy ta’lim tizimi uchun elektron-axborot resurslari yaratish, elektron-ta’lim resurslaridan foydalanib ta’lim jarayonini boshqarish, ta’lim

jarayonlarini axborotlashtirish, ta’lim jarayonining yagona axborot-ta’lim muhitini yaratish bo‘yicha tadqiqot ishlarini olib borgan.

O‘quv jarayonining axborot-metodik ta’minoti deganda, me’yoriy-huquqiy, axborot-statistik, o‘quv-tashkiliy, shuningdek, ilmiy-pedagogik, o‘quv-metodik kabi axborot resurslarni qamrab olgan axborot ta’minotni qamrab oluvchi ta’minot tushuniladi.[12]

O‘quv jarayonining axborot ta’minoti ta’lim muassasasining yagona axborot muhitini bosqichma-bosqich shakllantirishga yo‘naltiriladi. Yaratilgan zamonaviy axborot ta’minoti ta’lim-tarbiya, o‘quv-metodik, ilmiy-tadqiqot, boshqaruv va boshqa jarayonlarda axborot almashish sifatini yaxshilash, o‘quv jarayonini axborotlashtirish hamda avtomatlashtirish imkoniyatini yaratadi.

Talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirishda kompetentli yondashuvning muhim jihatlariga e’tibor qaratamiz. Kompetentli yondashuv ta’lim oluvchining ijtimoiy, kommunikativ, axborot, kasbiy va boshqa shaxsiy sifatlarini shakllantirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, zamonaviy ijtimoiy iqtisodiy sharoitlarni o‘zida deyarli to‘liq tarbiyalash va muhim amaliy vazifalarni hal qilish imkoniyatlarini shakllantirish singari kompetensiyalar tizimiga asoslangan.

AKT asosida didaktik materiallar tayyorlash va dars tashkil etish jarayonida talabalar egallagan bilim va ko‘nikmalari orqali qanday natijalarga erishishi kerakligi avvaldan aniq rejalashtirilishi muhimdir. Bunda o‘quv topshiriqlari faqatgina oddiy buyruqlar orqali emas, balki axborot texnologiyalari bilan til va nutq ko‘nikmalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan holda tuzilishi samarali natija beradi. Masalan, filologiya fanlarida topshiriqlarni matnlarni tahlil qilish, tarjima qilish, leksik birliklarni elektron lug‘atlar orqali izlash, matnlarni qayta ishlash yoki grammatik xatoliklarni avtomatik aniqlovchi dasturlardan foydalanish asosida shakllantirish mumkin.


O‘quv topshiriqlarining elektron muhitda berilishi ularni vizual va interaktiv tarzda taqdim etish imkonini beradi. Masalan, elektron platformada ingliz tilidagi matnni yuklab, talabadan uni qisqa annotatsiya shaklida bayon etishni yoki avtomatik tarjima dasturidan foydalanib, tarjimalarni taqqoslashni talab qilish mumkin. Bunday topshiriqlar talabaning axborot kompetentliligini ham, filologik ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Taqdimotlar tayyorlash jarayoni ham bu jarayonda muhim o‘rin tutadi. Unda asosiy axborotni vizual vositalar bilan uyg‘unlashtirish, slaydlarda misollar, matn parchalarini, fonetik yoki grammatik mashqlarni joylashtirish talab etiladi. Mutaxassislarning tavsiyalariga ko‘ra, ekranning chap yuqori qismiga e’tibor ko‘proq qaratilgani uchun asosiy tushuntirishlar yoki til materiallari aynan shu joyda joylashtirilsa, ularni o‘zlashtirish samaradorligi ortadi.

AKT asosida tayyorlangan didaktik materiallar faqatgina texnik imkoniyat emas, balki filologik bilimlarni amaliyot bilan uyg‘unlashtirish vositasi sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa talabaga bir vaqtning o‘zida axborot texnologiyalaridan foydalanish va tilni samarali o‘zlashtirish imkonini beradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, kasbiy fanlar integratsiyasi turli yo‘nalishlarda o‘z aksini topishi mumkin. Jumladan filologiya va axborot texnologiyalari negizida ingliz tili o‘qitishda elektron lug‘atlar, matn korpuslari, avtomatlashtirilgan tarjima

dasturlari, multimedia vositalaridan foydalanish talabalarni nafaqat til bilishga, balki zamonaviy texnologiyalarni amaliy qo‘llashga ham o‘rgatadi. Iqtisod va informatika negizida - talabalar iqtisodiy jarayonlarni modellashtirishda Excel, SPSS, STATA kabi dasturlardan foydalanadi. Bu orqali ular nafaqat nazariy bilimni, balki ma’lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmasini ham egallaydilar. Pedagogika va AKT negizida - ta’lim jarayonida interaktiv taqdimotlar, simulyatsiyalar, elektron testlar qo‘llanilishi pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishga yordam beradi. Texnika fanlari va AKT negizida - muhandislik yo‘nalishida 3D-modellashtirish, avtomatlashtirilgan tizimlar, raqamli simulyatorlardan foydalanish talabalarning kasbiy tayyorgarligini kuchaytiradi. Bu kabi integratsiya yondashuvlari ta’limni an’anaviy bilim berishdan ko‘ra, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlashning samarali usuli sifatida qarash imkonini beradi.



1-rasm: Fanlararo integratsiyada va axborot texnologiyalarining o‘rni


Kasbiy fanlar integratsiyasi talabalarda o‘z sohasi bo‘yicha chuqur bilim olishni, axborotni tahlil qilish va amaliy faoliyatda qo‘llashni, ijodiy va tanqidiy fikrlashni, mustaqil o‘rganish ko‘nikmalarini shakllantirishni ta’minlaydi. Bu jarayonning asosiy vazifasi - talabalarda axborot kompetentligini rivojlantirish va ularni raqobatbardosh mutaxassis sifatida tayyorlashdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Полат Е.С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. – Москва: Академия, 2009.
2. Castells M. The Rise of the Network Society. – Oxford: Blackwell, 1996.
3. Prensky M. Digital Natives, Digital Immigrants. – On the Horizon, 2001.
4. Mirzayeva N., Umarova F. Texnik oliy ta’limda raqamli pedagogik vositalardan foydalanish samaradorligi. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Risyukova Y. “Kasb ta’limi” yo‘nalishi talabalarida ilmiy-metodik web-faoliyatni shakllantirish. Avtoreferat. Chirchiq: 2019.
6. Seytmuratov S. Talabalarning kreativ kompetentliligini rivojlantirishning dasturiy ta’minotini takomillashtirish. Toshkent: 2025
7. Jo‘rayev N. Ta’lim jarayonida integratsion yondashuvning nazariy asoslari. – Toshkent: O‘zMU, 2019.
8. Shodiyev D. Kasbiy fanlarni axborot texnologiyalari bilan integratsiya qilish metodlari. – Samarqand: SamDU, 2021.


9. Mashbits E.I. Psychological-pedagogical issues of computerization of education / E.I. Mashbits. -. : Pedagogy, 1988. -192 p.

10. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’limda zamonaviy texnologiyalar // Pedagogik ta’lim. – Toshkent: 2005. – №. 6. – B. 15-17.



32.	**Mamatova Munisa Normurod qizi**	*Kreativ yondashuv – bo'lajak yosh o'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirishning muhim omili sifatida*	**1483**
33.	**Berdiyeva Farida Safar qizi, Xolto'rayeva Shaxodat O'rol qizi**	*Pedagogik refleksiya va o'z faoliyatini baholash*	**1485**
34.	**Poyonova Madinabonu Almardon qizi, Karimbayeva Mashhura Aymurza qizi**	*Talabalar bilan ishlashda psixologik yondashuvlar*	**1488**
35.	**Xolmatova Sarvinoz Safar qizi, Xursanova Yulduz Almardan qizi**	*Milliy qadriyat tushunchasining mazmun, mohiyati*	**1491**
36.	**Umarova Nasiba**	*Innovatsion yondashuv asosida o'qituvchining testologik madaniyatini rivojlantirish*	**1498**
37.	**Miramatova Laylo Ravshanjon qizi, Kusharbayev Djanibek Uralbayevich**	*O'zbekistonda o'qituvchilar tayyorlash tizimining shakllanish va rivojlanish tarixi*	**1501**
38.	**M.Yusupova**	*Otm talabalarining mustaqil fikrlashini rivojlantirishning nazariy ва ijtimoiy asoslari*	**1505**
39.	**Ne'matov Asadullo Ural O'g'li**	*Umumta'lim maktablarida tarix o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini takomillashtirish*	**1512**
40.	**Zamonov Jumanazar Raxmonqulovich**	*Bo'lajak tarix fani o'qituvchilarining ma'naviy kompetentligini milliy qadriyatlar asosida rivojlantrish pedagogik shart-sharoitlari*	**1516**
41.	**Erejepova Venera Asenbaevna**	*Bo`lajak boshlang`ich sinf o`qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishda dasturiy ta`minotini takomillashtirish*	**1519**
42.	**Erejepova Venera Asenbaevna**	*Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mantiqiy kompetentliligini rivojlantirishning pedagogic muommolari*	**1522**
43.	**Nasriddinov Otadavlat Usubjonovich**	*Differensial tenglamalarni yechishda amaliy dasturlarning o'rni*	**1526**
44.	**Mamatqulov Botir Jovli o'g'li**	*Raqamli transformatsiya sharoitida uzluksiz ta'limni modernizatsiya qilish yo'llari*	**1528**

45.	**Ismoilova Shoxnoza Abdirashidovna**	*Raqamli ta’lim muhitida tarbiyachilarning kasbiy sifatlarini oshirish vositalari*	**1530**
46.	**Yakubov Baxtiyor Baxriddin o‘g‘li**	*Talabalarning axborot kompetentliligini rivojlantirishda kasbiy fanlar integratsiyasi va uning imkoniyatlari*	**1534**



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA`LIMI VAZIRLIGI
TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIKA KAFEDRASI

“UZLUKSIZ TA`LIM TIZIMIDA, HUDUDLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIDA KASBIY PEDAGOGIK MAHORAT MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH; MUAMMOLAR, YECHIMLAR” MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI

MATERIALLARI TO'PLAMI

Muharrir: M.K.Ismailov
Sahifalovchi, dizayner: Y.Ochilov

"KITOB NASHR" nashriyoti. Termiz shahar
Farhod mahalla Zilol ko'chasi
Tasdiqnoma: № 5300 (10.05.2021)

Terishga 15.09.2025 yil berildi
Bosishga 15.10.2025 yil ruxsat berildi
Bichimi 100x70 1,8.
Ofesni bumaga usuli 30 shart t/b.
Adadi 100 nusxa

"ILM-21" MCHJ bosmaxonasida chop etildi
Termiz shahri, Nodira ko'chasi 6-uy
Ter: (99899) 017 96 96 (94) 664 44 41